

XALQ TA'LIMIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION JARAYONLAR

Bozorova Madina Raxmat qizi

Muhammad al- Xorazmiy nomidagi

TATU Qarshi filiali magistranti

m.bozorova960107@mail.ru

Annotatsiya: Hozirda intellektual salohiyatli bolalarni tarbiyalashda ta'lism tarbiyasiga e'tibor qaratish ta'lism sifatini oshirish intellektual salohiyatli uzlusiz ta'lism tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, ta'lism sifati, ta'lism-tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, ta'lism samaradorligi, malakali kadrlar, barkamol avlod, ta'lism tizimi, pedagog, ta'lism dasturlari.

Maktabgacha ta'lism tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lism muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lism-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lism dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish hamda ta'lism jarayoni sifatini oshirish va bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rsatiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 7 104 ta maktabgacha ta'lism tashkilotlari faoliyat yuritadi, ulardan 5 604 tasi (79 foiz) — davlat, 63 tasi — idoraviy va 1 437 tasi (21 foiz) — nodavlat tashkilotlardir.

Asosiy qism. So‘ngi yillarda davlatimizda maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini orttirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirib kelinmoqda:

ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;

maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta’lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish; metodik qo‘llanmalar va multimediali vositalar bilan ta’minlash.

2019 yil aprelida O‘zbekiston Prezidenti 2030 yilga qadar Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqladi. O‘zbekiston 2030 yilga qadar jahoning 30 ta yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbekistonda yashovchi 3- 7 yoshdagi 2,5 milliondan ortiq bolalarning 67,8 foizi Samarqand (12,1 foiz), Farg‘ona (10,8 foiz), Qashqadaryo (10,5 foiz), Andijon (9,3 foiz), Surxondaryo (8,5 foiz), Namangan (8,4 foiz) va Toshkent (8,2 foiz) viloyatlarida istiqomat qiladi.

3-bob. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta’minlovchi muhim manba bo‘lgan sifatli maktabgacha ta’limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardir;

maktabgacha ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

bolalarni sifatli maktabgacha ta'lism bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

maktabgacha ta'lism tizimiga innovatsiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta'lismi boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lism tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Yurtimizda bir maqol bor "Bo'ladigan bola boshidan ma'lum" deb bekorga aytishmaydi. Viloyat markazlarida maktabgacha ta'lism chuqurroq nazar qaratilada lekin chekka hududlarda ta'lism sifati yaxshi emas shunga qaramasda talantli bolalarni ko'plab uchratishimiz mumkin, bu kabi bolalarga e'tibor qaratilsa ular kelajakda yurtimiz ravnaqi uchun kerakli kadr bo'lib yetishadi. Shu bilan bir qatorda Maktabgacha ta'lism muassalari bolalarni qaysi sohaga qobiliyati borligini aniqlash kasbga yunaltirish kerak va ota-onalariga tavsiyalar berish kerak misol uchun "farzandingiz rassomchilikka qiziqarkan kelajakda dizayner yoki arxitektor bo'ladi" deb tavsiyalar berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda ota onalar ham farzandlarinig qiziqishlariga e'tiborliroq bolmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. (2-paragrafning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PQ-4857-sonli *qarori tahririda* — *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son*)
2. (3-bobning to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PQ-4857-sonli *qarori tahririda* — *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son*)
3. (4-bobning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PQ-4857-sonli *qarori tahririda* — *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son*)